

HOZIRGI ADABIY JARAYON VA YANGICHA USLUBDAGI ASARLAR TAHLILI

Axmatova Fotima Axatovna

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Ilmiy rahbar: **Zubaydova Nilufar Nematullayevna**

Annotatsiya: Hozirgi adabiy jarayonga tegishli asarlar va ularning tahlili, o'zgacha uslubga xos va mos bo'lgan asarlarning sho'ro adabiyotidan farqli jihatlari ochib beriladi. Hozirgi kundagi asarlarning dolzarb muammolari va ichki kechinmalar haqida so'z boradi. Asarlar tahlilidagi muhim jihatlar, qahramonlarning realistik harakatlari, asarning g'oyasi hamda yangicha uslubdagi fikrlar ketma ketligi asosida yaratilgan yangi davr adabiyoting ko'rakam namunalari haqida qisqacha tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ijodkor, yangi janrlar, retrospektiv va assotsiativ syujet, din, roman, qissa, hikoya.

Mustaqillik davri yutuqlari, yangicha usuldagagi roman, qissa, hikoyalar yaratishida yaxshigina poydevor bo'la oldi. Keng ochib berilgan imkoniyatlardan foydalangan holda juda ko'plab yutuqlarga erishildi. Shu bilan birga zamonaviy adabiyotimizda ham keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Ijodkorlar real, hayotiy fikrlardan cheklanish, yashirish, erkin fikrlarni o'quvchiga yetkaza olmaslik chegarasidan butunlay qutulib erkin ijod namunasi yuzaga keldi. O'tmishdagi qora kunlar, haq din, chin hayot haqida yangicha g'oya va talqinlar bilan dangal yoza boshladilar. Nafaqat nasriy asarlarda balki, she'riyat olamida ham yangicha uslub, janrlar o'z ifodasini topdi.

Mustaqillik adabiyotida Shukur Xolmirzayev "Olabo'ji" romani, "Bulut to'sgan oy" hikoyasi, Shoyim Bo'tayev "Sho'rodan qolgan odamlar"qissasi, "Darvesh" hikoyasi, Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani, Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam", Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar", "Shamolni tutib bo'lmaydi" kabi asarlari barcha adabiyotlarni qamrab oldi. Avvaliga ushbu asarlarni o'qiganimizda nima demoqchi bo'lganligi inson ongida qorong'u qolishi aniq. Ammo yana bir bor o'qib tafakkur qilganimizda esa bunday yangicha uslubda yozilgan asarlarning insonning hayotiga naqadar yaqinligini, real ruhiyat tasviri, milliylik uyg'unlashganini guvohi bo'lamic. Romanlarning g'oyasini ochib berishda esa asosan retrospektiv va assotsiativ syujetlar qo'llangan va shu asnoda qahramonlarning ichki olami, qalb kechinmalarini talqin etishda ularning keng imkoniyatidan

foydalaniladi. Masalan Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” asariga bir nazar tashlasak, avvalo bu asardagi sarlavha insonni o’ylantiradi. Nega aynan bu nom? Asar ichini o’qishga shoshilgan kitobxon buning mag’zini chaqa olmaydi. Ammo diqqat bilan o’qigan odam uni naqadar sarlavhaga mos asar ekanligi, shu bir sarlavhagina asarning butun mazmunini egallab olgan va chuqur ma’noga ega ekanligini anglab yetadi. Asarni qisqagina mazmuniga e’tibor qaratsak, asar boshlanishidanoq cholning tasviri g’ayrioddiy pafosini mujassamlashtirganini anglaymiz. Asar voqealari ekspozitsiyadan boshlangan. Asar qahramoni qariya butun umri davomida o’z vaqtini, o’zining bor aql_u zakovatini hukumatning ishlariga sarflagan, sog’ligiga, o’zining muhim ishlariga e’tibor qaratmay bor mahoratini mehnatga sarflab shunga yarasha mukofotlanmagan qariya obrazi tasvirlangan. Natijada esa keksayib kuchdan qolgan qariya hech kimga keraksiz inson bo’ib qolgan. Hotini va bolalari tashlab ketishdi. Turli xil rasmlarni chizish orqali hayotini ifodalagan qariya hayotining gullagan paytida yorqin rasmlar ammo yolg’izlikda esa rangsiz rasmlarni chizadi. Qariya ikki rasmda butun hayotini mujassamlashtirgan. Birinchi rasmda maymunni yoshgina, navqiron yigit bo’yniga zanjir taqqan holda o’rmon sari yetaklab ketayotgan bo’lsa, ikkinchisida esa aksi. Birinchi rasm yoshlik davrlari ramzi desak bo’ladi. Mas’ul vazifalarda ishlab yurgan paytlarida nohaqlik_u yomonliklarga qarshi kurashib yurgan davrlari edi. Bora bora bu yomonliklar insoniyat ustidan g’alaba qozongani, insoniyat olami ham bundan qabih ishlarga yillar sayin ko’nikib borgani ikkinchi rasmda o’z aksini topgan. Maymun yomonliklar ramzidir. O’zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov aytganidek: “Biron bir jamiyat ma’naviy imkoniyatlarini odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o’z istiqbolini tasavvur eta olmaydi” [1.36bet]. Avvalo, jamiyatdagi odamlarni tarbiyalash kerak. Ushbu asarda ochib berilmoqchi g’oya mazmuni ham aynan shu jumлага borib taqaladi. Insonlar hayotda doimo o’zini o’ylab yashashi, birov bilan dardi bo’lmasligi ham katta muammo. Darvoqe, mehr va muhabbat esa dunyoda katta rol o’ynaydi. Asardagi qariya ana shunday mehrni insonlarga boricha berdiyu ammo o’zi qaytib ololmadi va bora bora buni tushunib yetdi ammo unda kech bo’lgan edi.

Roman janri XIX asrda o’zining gullab yashnashiga ilk qadamini qo’ydi. Stendal, Balzak, Dikkans, Turgenev, Pushkin, Lev Tolstoy kabi tanqidiy realizm san’atining yirik namoyondalari janr taraqqiyotida katta rol o’ynadi. Roman o’zbek adabiyoti tarixida yangi janr. Professor Mirvaliyevning “O’zbek romani” nomli fundamental kitobini mutoala qilgan adabiyotchi o’zbek adabiyotida roman janrining tug’ilishi va shakllanishi haqida mukammal tushunchaga ega bo’ladi.

“Har bir millat o’z uyg’onish davrini o’ziga xos yo’sinda boshdan kechirgan”deb A. Losev va uyg’onish badiiyatining bosh alomatlaridan beri qadimgi qadriyatlarga tashnalikning kuchayishi ekanini ta’kidlaydi. Bizda ham bugungi kunda asarlarga o’zgacha usuldan yondashish odat tusiga kirdi. Xalqning qiyin ahvolda ekanligini o’z ko’zi bilan ko’rgan ammo hech qanday chora ko’rilmagan holatini Tog’ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida ham yaqqol ko’zga tashlanadi. Butun o’zbek xalqining 100 yillik o’tmishini sodda, mehnatkash Dehqonqul obrazi orqali o’zbek dehqonlarining tipik obrazi aks etgan. Zamonaviy romanga xos uslublar orqali yaratilgan ko’p yillik xalq qiyinchiliklarini o’zida mujassam etgan. Roman qahramonlari o’z yerlarini o’z bolasiday sevib, avaylab, ardoqlaydigan oddiy xalq vakillaridir. Ular faqat ishga, xalqqa jon kuydiradilar. Bunga javoban esa jabr sitamlar, azob uqubatlar yomg’iri ostida qoladi. Bunday paytda ular xayotda shu norasoliklar, bosqinchilar tomonidan yog’dirilgan balolar, tuxmatlar insonlar tomonidan qilinayotganiga ishongisi kelmaydi. Yoshligidanoq chor hukumati siyostidan qoniqmagan, zo’rayishlar kuchayib borayotgan militiarizmdan nafratlanish ruhida ta’sirlanib yurgan Aqrab bunday to’dadan o’ch olish ilinjida yuradi. Qahramonlarning yurtga muhabbat, insonlarga ishonuvchanligi, ishga mehri evaziga qilinayotgan ta’na toshlari natinasida ularning nafrati tug’ildi. Ma’naviy hamda moddiy jihatdan ezilgan xalqning shijoati so’ndi. Qahramon necha yillar mobaynida hukumatga qilgan mehnati evaziga turli xil qiynoqlarga solinib, tuxmat toshlari otilib, sakkiz yilga qamalib ketadi. Yelkasi oftob ko’rmagan mehnatkash xalqning soddagina o’g’loni obrazi aniq ifodalab berilgan. Tog’ay Murod ushbu asar haqida fikr aytadi: “Men bu asarim bilan o’zbek xalqiga haykal qo’yaman”.

Hozirgi kunda diniy mavzularga ham aynan e’tibor qaratilmoqda. Avvalgi yillar adabiyoti namunalarida ilgari uchratmagan diniy_falsafiy, axloqiy mavzular, tarbiyaviy me’zonlar dinga da’vat tushunchalari deyarli qo’llanilmagan. Yangi zamonaviy adabiyotimizda diniy qarashlar eekin olib borilmoqda. Masalan A. Oripovning “Haj daftari” va “Hikmat sadolari” turkumida bir nechta diniy she’rlar borligiga guvohi bo’lamiz. Aslida bizning dinimiz insonlarni doimo yaxshilikka, insof diyonatga, axloqqa chorlovchi mezon ekanligini yaxshi bilamiz. Bu turkumdagи she’rlar asarlar orqali yoshlarnizni to’g’ri yo’lga boshlovchi chaqiriqlar namoyon etgan. Aslida esa dinni yaxshi bilmaslik turli xil yomon illatlarga qo’shilib qolishiga sababchi bo’lib qoladi. Bunday yo’sindagi xatti harakatlar, tadbirlar, maqolalar avval ochiq oydin ifoda etilmagan. Hozirgi adabiyotimizga esa bunday yangiliklar kiritish yanada ommalashib bormoqda. So’z erkiligiga erishilgan bu zamonda yaratilgan

yangicha asarlar bugungi adabiyotimiz, asarlar, she'rlar, hikoyalar va qissalar orqali yanayam gullab yashnaydi.

Yana bir yangicha ruhda yozilgan romanga bir nazar tashlasak. Ushbu asar yangi davrning o'ziga xos uslubda va o'ziga xos yangicha ohangda yozilgan yangi davr romanidir. Romanda lirika hamda fojea birgalikda uyg'unlashib ketgan. Dramatik turda esa tragikomediya ham mavjud. Romandagi qahramon o'zgalarga o'xshamaydigan xayolparast, doimo o'z ko'rgan tushlari bilan yashaydigan, o'lim deb tili chiqqan va o'limdan aslo qo'rqlaydigan dardchil yigit obrazi ifodalangan. "Qo'rqlay" romani judayam his hayajonga boy bo'lган romandir. Xalq manfaati uchun Germaniyaga ketgan talabalarni qidirib aniqlik kiritish maqsadida yo'lga chiqqan qahramon hayolidagi o'y_xayollari, orzu istaklarini hozirgi zamon yoshlarining turmushi bilan taqqoslaysdi. Atrofdagi vatan dardini his qilmaydigan yoshlardan, sotqin_u nodon xoinlardan norozi bo'lib yuradi. Uning hayoli doimo vatan, yurt qayg'usi ila ketgan yetmish talabadir. Millatning ko'zini ochish, uyg'otish ilinjida bo'ladi. Asarda tarix, nadomat, xoinlik, mehr_muruvvat va muhabbat mujassam etgan. Vatan dardi uchun o'qishga ketib qaytib kelmagan yetmish talabani go'yo yo'qolib borayotgan orol singari tasvirlaydi. Orol dengizi ham yo'qolgani singari ular ham izsiz, sababsiz yo'q bo'ladilar. "Yo hudoyim to qiyomat vatan bizga omonatdir, omonatdir unga xiyonat qiyomatdir qiyomatdir, qiyomatdir!". Roman ana shunday xitob bilan tamomlandi. Asar negizida haqiqat singdirilgan asarlarning haqiqatini topib o'qish va uqish juda muhim masaladir. Endigma adabiyot sahnalarida kirib kelgan ushbu asar kitobxonni chuqr o'yga toldiradi. Tarixan haqiqat asosida yozilgan yangicha roman 2021yil "Yil kitobi" deb topildi.

O'zbekning ma'rifatparvar ijodkorlaridan biri Cho'lpon 16 yoshida "Adabiyot nadur?" maqolasida adabiyot umuman ijod olami haqida quyidagi so'zlarni namoyon etgan. "Ha to'xtamasdan harakat qilib turg'on vujudimizga, tanamizga suv havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kunlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa_millat yashar. Adabiyoti o'limgan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolib, sekin sekin inqiroz bo'lur".

Darhaqiqat, adabiyot quruq g'oyalar majmosi emas, insoniyatning ichki kechinmalari, ruhiyati bilan chambarchas bog'liq mukammal hodisadir. Mana hozirga kelib dunyo yozini ko'rgan turli xildagi adabiy namunalar bisyor. Hozirgi adabiy jarayon asosida yaratilgan uch asar tahlilini ko'rdik. Ularning yangicha ruhda yondashuvi juda katta samara berdi va kitobxonlarni ham o'ziga ancha jalb eta oldi.

Kun muammolarini erkin yoritib beraolishlik sanatidan erkin foylana olishdi va yuqori natijalarga erishildi.

So'z oxirini adabiyotshunos Umarali Normatovning mazmundor bir fikrlari orqali tugallasam. "So'nggi yillardagi bizdagi adabiy jarayonga xos eng muhim xususiyatlardan biri shundaki, adabiyotimiz xilma xil bo'lib boryapti, bizda ham falsafiy asosi jihatdan xilma xil yo'nalishga mansub asarlar paydo bo'la boshladи". Naqadar haq fikrlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I. Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari Toshkent O'zbekiston 1997yil 36 bet.
2. U. M Azamatovna "Comparative-typological analysis of the terms of folk art" International Journal on Integrated Education 3 (12), 155-157, 2020.
3. Hozirgi adabiy jarayon majmua.
4. J. Jovliyev "Qo'rhma" asari.
5. Cho'lpon Adabiyot nadur? "Cho'lpon" 1994 yil 36-37 betlar.
6. M. A Ubaydullaeva "The History of The Development of The Terms of Literary Studies Of The Turkic Peoples" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2 ..., 2022.
7. U. Normatov Umidbaxsh tamoyillar Toshkent "Ma'naviyat" 2000 yil 112 bet.
8. Ikrambayevna, S. D. (2024). Classification of Functions of Communicative Strategy and Tactics in Political Communication. Miasto Przyszłości, 50, 548-553.
9. Sattarova, D. (2024). Siyosiy Muloqotning Pragmatik Aspektlari. Tamaddun Nuri Jurnali, 5(56), 380-383.
10. Axmedova, D., & Zarmaskhonov, S. (2024, February). Exploring Global Perspectives in Language Teaching and Learning. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 205-207).
11. Sattarova, D. (2024, January). Siyosiy Notiqlikning Milliy Madaniy Va Lisoniy Tahlili (O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti IA Karimov Nutqlari Asosida). In Международная конференция академических наук (Vol. 3, No. 1, pp. 5-7).
12. Sattarova, D. (2023). Komunikativ Diskursning Tadqiqot Ob'yekti. Молодые ученые, 1(22), 41-43.
13. Ikramboyevna, A. D., & Ikramboyevna, S. D. (2023). The Ways of Forming Secondary Nomination in Uzbek Language and Its Impact on Linguistics.
14. Shokhista, R. (2023). The Significance of Emphasizing Communicative Competence As The Foundation For Teaching Listening And Speaking Skills Rustamova Shokhista Sharifovna. International Journal of Contemporary Scientific

and Technical Research, 25-28.

15. Rustamova, S. S. (2023, January). The Importance of Speaking Activities in Teaching English. In International Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 357-361).
16. Sharifovna, R. S. (2022). Teaching Spoken English To Upper Class Pupils. Confrencea, 6(6), 87-89.
17. Sharifovna, R. S. (2022). Class Size and The Learning-Teaching Process in Upper Classes. Journal of new century innovations, 14(1), 86-98.
18. Sharipovna, R. S. Peculiarities of Teaching English In Secondary Schools in Uzbekistan. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, (2), 1-5.
19. Suleymanova, N. M. (2020). On the Nominate Nature of the Sentence. Theoretical & Applied Science, (4), 307-309.
20. Сулейманова, Н. М. (2017). Номинативный аспект речевого процесса. In Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives (pp. 76-82).
21. Махмудова, Г. Н., & Гуломова, Н. Ф. (2023). Проблемы формирование цифровой экономики в странах ЕАЭС. In Интеллектуальная платформенная экономика: тенденции развития (pp. 10-48).
22. Suleymanova, N. M., & Idiyev, A. R. O. G. L. (2021). Gapning Nominativ Aspekti Va Uning Kommunikativ Jarayoni Haqida. Academic research in educational sciences, 2(12), 805-809.
23. Махмудова, Г. Н., & Гуломова, Н. Ф. (2023). Unlocking the potential of the digital economy in the EAEU countries: identifying and overcoming obstacles. π-Economy, 16(4), 7-25.
24. Сулейманова, Н. М., & Абдуллаева, Л. Т. (2017). Имманентный характер синергетических свойств единиц языковой системы. In Инновации В Современном Языковом Образовании (pp. 61-65).